

**2023 yilning I chorak yilligida amalga oshirilgan import hajmi hamda importni qisqartirish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar to'g'risida
MA'LUMOT**

**ИНФОРМАЦИЯ
об объемах импорта и принятых мерах по сокращению импорта
за I квартал 2023 года**

I. Kombinat tomonidan amalga oshirilgan import tahlili.

2023 yilning yanvar-mart oylarida kombinat bo'yicha mahsulot va xizmatlar importi hajmi **47,9** mln. dollarni tashkil etdi.

"Navoiy KMK" AJ ning mahsulot va xizmatlar importi tarkibi quyidagicha:

1. Mashina va uskunalar – **34,3** mln. dollar (ulushi 71,6 %), shu jumladan:
 - 3 dona kon samosvallari – 1,8 mln. dollar;
 - 7 dona burg'ulash dastgoxi – 3,7 mln. dollar;
 - 4 dona yuk tashuvchi magistral teplovozi - 22,8 mln. dollar;
 - 2 maydalash uskunalari – 1,7 mln. dollar;
 - texnologik uskunalarni butlovchi qismlar (*beg'araz asosda olib kirilgan*) – 4,3 mln. dollar.

2. Butlovchilar va ehtiyot qismlar (kon va shaxta texnikasiga ehtiyot qismlar va beg'araz asosda olib kirilgan boshqa qismlar) – **0,2** mln. dollar (0,5%);

3. Hom-ashyo va materiallar (og'ir yuk ko'taradigan kon-shaxta texnikasi uchun shinalar) – **10,5** mln. dollar (21,8 %);

4. Xizmatlar – **2,9** mln. dollar (6,1 %).

Kombinatning asosiy faoliyatiga taalluqli bo'lмаган, Mahalliy lashtirish dasturi doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar importi amalga oshirilmadi.

II. Kombinat bo'linmalar quvvatlarida mahalliy lashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish.

2023 yilda mahalliy lashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tasdiqlangan jadvalga muvofiq, joriy yilning yanvar-mart oylarida 126 ta (jadval bo'yicha 123 ta) loyiha bo'yicha 155,4 mlrd.so'mlik yoki davr prognoziga nisbatan 100,7%ga mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2022 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,5%ni tashkil etdi. Shu jumladan, hisobot davrida 92 ta yangi va kengaytirilgan loyihalar bo'yicha EKG ekskavatorlari uchun ehtiyot qismlar, markazdan qochma yanchish mashinasi korpusi, gidravlik ekskavatorlari uchun ehtiyot qismlar, yuklash va etkazib berish mashinasi uchun ehtiyot qismlar va

metallga ishlov beruvchi dastgohlar kabi umumiy qiymati 114,2 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

III. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperasiya aloqalarini kengaytirish va kooperasiya hisobiga importni optimallashtirish.

2023 yilning yanvar-mart oylarida sanoat kooperasiyasi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan sanoat mahsulotlar hajmi **1 148,5** mlrd. so‘mni va 2022 yilning mos davriga nisbatan 117,3% ni tashkil etdi.

Kombinatning 2023 yilga mo'ljallangan “Yo'l xaritasi”ga asosan, import bo'yicha olib kiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperasiyasini kengaytirish hisobiga importni qisqartirishning maqsadli ko'rsatkichlari yanvar-mart oylarida **22,3** mln. dollarni tashkil etdi.

Kombinat tomonidan xarid qilinishi ko'zda tutilgan, kelib chiqishi import bo'lgan tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron kooperasiya portalining “Import muqobili bo'yicha so'rov yuborish” bo'limiga joylashtirish orqali ularni o'zlashtirish bo'yicha potentsial ishlab chiqaruvchilarni aniqlash bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

“Navoiy KMK” AJ 2023 yil 16-17 martda Jizzax viloyati o'tkazilgan yarmarkalarda ishtirok etdi. Ushbu hududiy yarmarkalarda mahsulotlarni xarid qilish bo'yicha 124,8 trln. so‘mlik 16 ta shartnomalar tuzildi.

“Navoiy KMK” AJ importni qisqartirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat sohasida va davom ettirish shaffofligini oshirish bo'yicha ishlar xaridlarning samaradorligi.